

## Jamol Kamol Ijodining Adabiyotshunoslikda O‘Rganilishi Va Shoirning Ijodiy Biografiyasi

Nazarova Dildora

Buxoro davlat tibbiyot instituti

**Abstarct:** Ushbu maqolada shoir ijodiy biografiyasiga oid tadqiqotlar adabiyotshunos Jamol Kamolning ijodkorlik iqtidorini charxlagan muhim badiiy omilga fikr yuritiladi.

**Key points:** adabiyot, ijod, mahorat, uslub, poeyik dunyoqarash

«Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q»<sup>1</sup>. Shu jihatdan O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning she’riy asarlarini monografik tarzda o‘rganish, she’r va dostonlariga xos an’anaviylik, vorisiylik va novatorlik xususiyatlarini ochib berish, ijodkor badiiy mahoratini tadqiq etish tekshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Jamol Kamol ijodi maxsus o‘rganilgan tadqiqotlar sirasida adabiyotshunos O.Safarov kuzatishlari alohida o‘rin tutadi. Olim maqolasini Jamol Kamolning ijodiy portreti deyish mumkin. Chunki adabiyotshunos J.Kamolni shoir qilib yetishtirgan muhit, dastlabki ijodi, uning serqirra faoliyati – she’riyati, tarjima asarlari haqida fikr yuritgan: «Jamol Kamol poeziyasining xarakterli jihati unda lirik-psixologik kechinmalarning ustuvorligida ko‘rinadi. Nozik va inja hislar, lirik qahramon ruhiy holatlarining rang-barang harakati va shiddati shoir lirikasiga ajib ruh baxsh etadi»<sup>2</sup>. Shu nazariy qarashlarni olim J.Kamol badiiyati namunalari asosida dalillaydi. Jumladan, adabiyotshunos keyingi yarim asar davomida jamiyatimizda kechgan turli taloto‘plar, shaxsga sig‘inish oqibatlarini tugatishdek bir murakkab davrda ijod qilgan shoirlar qatorida Jamol Kamolning ham borligi, uning badiiy bitiklarida davr, jamiyat mafkurasi, psixologiyasi tajassum topganligi yorqin misollar orqali asoslab berilgan. Qolaversa, shoir sakkizliklari haqidagi talqinlar ham adabiyotshunosning tiyran nigohini ko‘rsatib turadi: «Sakkizliklarda inson tabiatining ikki qutbi haqidagi falsafiy mushohadaga moyillik seziladi. Qalbida «ganji muqaddas» – ezgulik o‘ti bo‘lmish insonning qo‘lida vayronlik keltirishi muqarrar bo‘lgan olov ham bor. Insonning murakkab tabiati tasvirlangan mo‘jaz sherda jamiyat ertasi uchun qayg‘urish ohangi barq urib turadi»<sup>3</sup>. Bu e’tiroflar shoirning «Mening uvoq she’rim – mening dilporam» sakkizliklar turkumi haqida aytilyapti. Demak, shoirning sakkizlik janridagi she’rlaridagi axloqiy mazmuni Sharq didaktik adabiyoti sarchashmalari bilan vobasta deyish mumkin.

Adabiyotshunos Jamol Kamolning ijodkorlik iqtidorini charxlagan muhim badiiy omilga e’tibor qaratadi. U ham bo‘lsa, shoirning Sharq va G‘arb adabiyotining turli janrlardagi badiiy yetuk

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

<sup>2</sup> Сафаров О. Улкан шоир ва истеъдодли таржимон. Аср ҳақиқатларининг шеърий тараннуми. Зиёрат замзамалари ёхуд “Сафар дафтари” шеърий туркуми. Китобда: Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б.380.

<sup>3</sup> Сафаров О. Улкан шоир ва истеъдодли таржимон. Аср ҳақиқатларининг шеърий тараннуми. Зиёрат замзамалари ёхуд “Сафар дафтари” шеърий туркуми. Китобда: Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б.381.

namunalarini mahorat bilan bevosita va bilvosita tarjima qilishi bilan bog'liq mashaqqatli jarayondir. Olim J.Kamolning Shekspir tarjimalari bo'yicha shunday yozadi: «Jamol Kamol buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir ijodining muxlisi sifatida alohida ijodiy jasorat ko'rsatdi. Uning maftunkor falsafiy asarlari mag'zini chaqishni ko'zlab, ingliz tilini o'rganib, asliyatda o'qidi va «Gamlet», «Otello», «Antonio va Kleopatra», «Afinalik Timon», «Qirol Lir», «Qish ertagi»... singari dramatik asarlarini ona tilimizga o'girdi»<sup>4</sup>. Demak, bu fikrlar J.Kamolning til bilimdoni ekanligini ham isbotlab turadi.

Maqolada J.Kamol ijodining yana bir qirrası – adabiyotshunoslik faoliyati ham tahlil etilgan. Xususan, uning «Lirik she'riyatda kompozitsiya», «Tarixiy drama» singari salmoqli ishlari she'r va drama nazariyasini boyitib kelmoqda.

O.Safarovning «Asr bilan vidolashuv» saylanmasi badiiy mundarijasi haqidagi kuzatishlari ham e'tiborli. Olim bu kitobning fazilatlarini shoir g'azallari, barmoqdagi she'rlari va dostonlarining tahlil orqali ochib beradi. Shoirning birgina muxammaslari borasida bildirilgan fikrlar buni tasdiqlab turadi: «Jamol Kamol nainki Alisher Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Boborahim Mashrab, Furqat singari mumtoz shoirlar va zamondoshi E.Vohidov g'azallariga bog'lagan taxmislari, balki o'z muxammaslari bilan ham muxammasnavislikda mohirlik ko'rsata oldi. Shu asarlari bilan ustozlari iste'dodiga yuzma-yuz tura bildi, ular g'azallarida ifodalangan dardlarga darddoshlik, ohangiga esa o'z qalb ohanglarini payvasta etib, zamon muammolarini ifodalashga jur'at qildi»<sup>5</sup>. Shu jihatdan olim shoirning «Fayzulla Xo'jaev ko'zlari» muxammasini vazn, qofiya va badiiy mazmuniga ko'ra tahlil etadi.

Olim kuzatishlari bu bilan intiho topmaydi. O.Safarov adabiy jarayonning zukko kuzatuvchisi sifatida J.Kamolning «Safar daftari»ga kirgan manzumalarini nazardan o'tkazadi. Bunda shoirning she'riy turkum yaratish tajribasi va bu yo'ldagi muvaffaqiyatlari haqida fikr yuritiladi. O'zbek she'riyatida Mirtemir, M.Boboev ijodlarida takomil topgan she'riy turkumlar J.Kamol she'riyatida ham muhim ahamiyat kasb eta oldi. Shundan kelib chiqib olim: «Endilikda she'riy turkum qator fazilatlarini va qusurlari bilan yaratilgan davrning tarixiy-adabiy hujjatiga aylanib qoldi»<sup>6</sup>, degan nazariy xulosaga keladi.

Ko'rinadiki, yuqorida fazilatlarini haqida gapirganimiz O.Safarovning ijodiy portret xarakteridagi maqolalar turkumi hozirga qadar shoirning serqirra ijodi teran o'rganilgan maxsus tadqiqot sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

J.Kamol ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar qatorida adabiyotshunos I.Haqqulovning ham bir qator maqolalarini tilga olish zarur. Bu maqolalarda Jamol Kamol she'riyatiga xos muhim xususiyatlar ifoda etilgan: «Iste'dodli shoir asarlarini nazardan o'tkzangiz, o'zi yo'q vaqtlarga, ya'ni tirikligidan keyingi olis yillarga ham u olis nigoh tashlay olganligiga iqror bo'lasiz. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Chin shoir xayol va tasavvurlarda kelajak nasllar orzulari bilan yashab, ajdodlar aytib ulgurmagani savollarga o'zicha javob topadi. Bu muhim fazilatga vaqtni chuqur idrok etolgan shoir erisha oladi. Jamol Kamol ana shunday shoirlardan biri»<sup>7</sup>. Haqiqatan, millatning haqiqiy shoiri o'z xalqi qalbini aks ettiradi: uning o'tmishidan saboqlar chiqaradi, buguni bilan yashaydi, kelajagiga katta umid bilan qaraydi.

Adabiyotshunos olim shoir she'rlariga xos avtobiografizmni, uning dilidagi og'riqlar, bolaligi kechinmalari haqida shunday yozadi: «Shoir «Otam» she'rida otasizlik fojiasi, yetimlik alamlarini

<sup>4</sup> Сафаров О. Улкан шоир ва истеъдодли таржимон. Аср ҳақиқатларининг шеърий тараннуми. Зиёрат замзамалари ёхуд “Сафар дафтари” шеърий туркуми. Китобда: Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б.383.

<sup>5</sup> Сафаров О. Улкан шоир ва истеъдодли таржимон. Аср ҳақиқатларининг шеърий тараннуми. Зиёрат замзамалари ёхуд “Сафар дафтари” шеърий туркуми. Китобда: Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б.389.

<sup>6</sup> Сафаров О. Улкан шоир ва истеъдодли таржимон. Аср ҳақиқатларининг шеърий тараннуми. Зиёрат замзамалари ёхуд “Сафар дафтари” шеърий туркуми. Китобда: Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б.393.

<sup>7</sup> Иброҳим Ҳаққул.Ҳаёт Адабиёт ва Абадият. – Тошкент: Тафаккур, 2019. –Б. 144.

talqin etarkan, qonidagi «g'ussalar», «g'ashlar», «ko'rinmas nayzaning tig'i» kabi yurakka qadalib turguvchi «xira bir xomushlik» uchun zolim padarkushlarga la'nat o'qiydi<sup>8</sup>. Bunda «zolim padarkushlar» deganda olim, urush yillarini, fashistlarni nazarda tutadi. Chunki Jamol Kamolning otasi ham urushga ketib, qaytib kelmagan.

Shu bilan birga olim shoirning g'azalchilikdagi izlanishlariga ham e'tibor qaratadi: «Jamol Kamol – otashin g'azalnavis. Uning aksariyat g'azallarida oshiqona xayol va kayfiyatlar tasvirlangan. Mening diqqatimni shoirning «Umid», «Sen bugun uzgan bu yaproq», «Mashrab monologi», «Tarixda» singari falsafiy g'azallari o'ziga ko'proq jalb qiladi. Bu she'rlarda dil bedorligi va dunyo hodisotlarini murakkabliklari bilan idrok etishga dav'at ruhi hokimdir<sup>9</sup>. Adabiyotshunos qarashlaridagi «g'azallarida oshiqona xayol va kayfiyatlar tasvirlan»ishi shoir g'azallarining an'anaviylik xususiyatini ko'rsatib turadi. Chunki g'azallar, asosan, ishqiy mavzularda bitiladi. Qolaversa, J.Kamol g'azallarining novatorona jihati esa «dunyo hodisotlarini murakkabliklari bilan idrok etganligidir. Sababi, bu g'azalning mavzu doirasi davr mazmuni bilan bog'liqlikda kengayganligi, janr tabiatidagi ijtimoiylashuv bilan bog'liq. Buni shoirning mustaqillik mavzusi yoritilgan asarlari tasdiqlab turadi.

Demak, olim kuzatishlari J.Kamolning adabiyot maydoniga kirib kelishi, she'rlaridagi avtobiografizm, g'azallarining an'anaviylik va novatorlik xususiyatlari bilan bog'liq.

N.Rahimjonov shoir ijodini davr adabiy kontekstida yoritishdan tashqari, bir necha maqolalarini J.Kamol ijodini o'rganishga bag'ishladi. Shulardan biri shoir olti jildligining oltinchi jildi – «Bulbulnoma» ga yozgan so'ngso'z xarakteridagi salmoqli tadqiqotidir. Adabiyotshunos shoir she'riyatidagi mayinlik va jozibani quyidagicha izohlaydi: «Jamol Kamol she'riyatidan bolalarcha hayrat, beg'uborlik va samimiyat balqib turadi. Zuvalasiga bolalik ikki qatla qo'shib qorilgan bo'lsa kerak. Ushbu xususiyat shoir badiiyatiga o'zgacha fayz, farah bag'ishlaydi. Shu ma'noda, bu ochunda eng keksa go'dak, eng donishmand go'dak – she'r bo'lsa kerak, deging keladi<sup>10</sup>. Haqiqatan, she'r qachon kitobxon qalbiga yetib boradi, qachonki bolalarcha beg'uborlikka yo'g'rilgan bo'lsa. Shu jihatdan shoir she'rlarini dunyodagi eng keksa va eng donishmand go'dakka qiyoslaydi. Yoxud adabiyotshunos shoir she'riyatining falsafiy mazmuni haqida gapirar ekan, yozadi: «Falsafiy she'riyat xalqona donishni o'zida mujassamlashtirgan hikmatlar guldastasi. Shoir o'z she'rlarida yashaydi»<sup>11</sup>.

Shu bilan birga adabiyotshunos J.Kamol lirikasidagi janrlarni tadqiq etar ekan, yozadi: «Shoir sakkizliklarida haqiqatning go'zalligini tasdiqlashga yo'naltirilgan fikr yuksak qadriyatdir degan ma'no ustuvor. Lirik qahramon inson faoliyati bilan tabiatdagi go'zallikni tavsiflarkan, yonida xunuklik alomatlarini ko'radi. Munofiqlik, nodonlik, mute'lik insonning ezgu ishlariga soya tashlaydi; ma'nan to'kisligiga rahna soladi. Hayot va o'lim, hayot hikmati va tiriklik mohiyati xususida o'quvchi bilan sidqidildan suhbatlashadi, dardlashadi»<sup>12</sup>. E'tibor berilsa, bunda sakkizlik janri tabiati ochib berilgan. Ya'ni uning axloqiy didaktik mazmun tashishi bilan bog'liq.

## **Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // *Xalq so'zi, 2017 yil 4 avgust.*
2. Safarov O. Ulkan shoir va iste'dodli tarjimon. Asr haqiqatlarining she'riy tarannumi. Ziyorat zamzamalari yoxud “Safar daftari” she'riy turkumi. Kitobda: Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. –Buxoro: Durdona, 2015. –B.380.

<sup>8</sup> Иброҳим Ҳаққул.Ҳаёт Адабиёт ва Абадият. – Тошкент: Тафаккур, 2019. –Б. 149.

<sup>9</sup> Ҳаққул Иброҳим. Ҳаёт. Адабиёт. Абадият. – Тошкент: Тафаккур, 2019. –Б. 150.

<sup>10</sup> Раҳимжонов Н Фикр – офтоб фарзанди. Китобда: Жамол Камол. Булбулнома. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 455.

<sup>11</sup> Раҳимжонов Н Фикр – офтоб фарзанди. Китобда: Жамол Камол. Булбулнома // Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 456

<sup>12</sup> Раҳимжонов Н Фикр – офтоб фарзанди. Китобда: Жамол Камол. Булбулнома // Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 458-459.

3. Zhamol Kamol. Аср билан видолашув. Сайланма. Олти жилдлик. I residential building. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018.
4. Kuvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi yzbek poemasi. -Toshkent: Turon zamin zie, 2014. - B. 37.
5. Dildora, N. (2019). Literary Motives of Sufizm and Spiritual, Moral Ideas in the Lyrics of Jamal Kamal. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3 S), 223-225.
6. Quvvatova, D., & Nazarova, D. I. (2020). The rubai genre in the works of Jamal Kamal. *The American Journal of Social Science and Education Innovations/Dilrabo Quvvatova, DI Nazarova*, (9), 346-352.
7. Nazarova, D. (2019). THE INTERPRETATION OF EDUCATIONAL IDEAS IN THE POEMS OF JAMAL KAMAL. *Theoretical & Applied Science*, (11), 136-138.
8. Nazarova, D. I. (2020). The foundation of Kamol Jamol's poems is pain. In *Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution* (No. 6, pp. 1-3).
9. Nazarova, D. I. (2020). Feelings of lyric heroes in Kamol Jamol's work. In *Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution* (No. 6, pp. 1-3).
10. Nazarova, D. I. (2020). Jamol Kamolning Asru radifli g'azaliga yozgan muxammasi. *Ilim ham ja'miyet. Ilmiy-uslubiy jurnal*,(1), 93.
11. Nazarova, D. (2019). POETRY OF JAMAL KAMOL. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(7), 186-189.
12. Назарова, Д., & Зойирова, Д. А. (2022). ЖАМОЛ КАМОЛ ДОСТОНЛАРИНИНГ БАДИИЙ ҚУРИЛИШИ. *Scientific progress*, 3(1), 934-944.
13. Dildora, N. (2021). Genre Features o.\\.
14. Ilhomovna, N. D. (2022). Mystical Content in the Poems of Jamal Kamal in Finger Weight. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 1(9), 208-215.
15. Ilhomovna, N. D. (2022). JAMOL KAMOLNING "SHAHRI BONU" DOSTONIDA VAZN XUSUSIYATLARINING TAHLILI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 254-264.
16. Ilhomovna, N. D. (2022). AXLOQIY-MA'RIFIY G'OYALAR TALQINLARI JAMOL KAMOL IJODIDA. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 102-108.
17. Nazarova, D. Literary Motives of Sufizm and Spiritual. *Moral Ideas in the Lyrics of Jamal Kamal International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878*.
18. Nazarova, D. (2019). Literary Motives of Sufizm and Spiritual, Moral Ideas in the Lyrics of Jamal Kamal. *International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8. Issue, 3(October 2019), 223*.
19. Назарова, Д. И. (2020). ЖАМОЛ КАМОЛ МУХАММАСЛАРДА УСЛУБ ВА ТАСВИР. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(3).
20. Назарова, Д. И. (2020). ЖАМОЛ КАМОЛ МУХАММАСЛАРДА УСЛУБ ВА ТАСВИР. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(3).
21. Ilhomovna, N. D. (2023). Ideological-Artistic Content and Compositional Characteristics of the Work "Great Kingdom". *Scholastic: Journal of Natural and Medical Education*, 2(4), 100-104
22. Ilhomovna, N. D. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF THE NOVEL "THE GREAT KINGDOM". *Academia Science Repository*, 4(5), 47-50.

23. Dildora, N. (2022). Genre Composition and Subject Content of Jamal Kamal's Works Genre Composition and Subject Content of Jamal Kamal's Creativity. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 176-184.
24. Назарова, Д. И. (2022). Жамол Камол Ғазалларининг Анъанавийлик Хусусиятлари. *Miasto Przyszłości*, 24, 403-407.
25. Dildora, N. (2021). Genre Features of Jamal Kemal's Epics. *International Journal on Integrated Education*, 4(9), 24-31.
26. Назарова, Д. (2021). JAMOL KAMOL DOSTONLARINING VAZN XUSUSIYATLARI VA "SHAHRIBONU" DOSTONI TAHLILI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(4).
27. Nazarova, D. JAMOL KAMOL SHE'RLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ILIM hám JÁMIYET*, 122..
28. Ilkhomovna, N. D. (2023). Updates on Jamal Kamal's Creative Quest to Write Ghazals. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149)*, 1(9), 340-344.
29. Ilhomovna, N. D. (2023). Jamol Kamolning Barmoq Vaznidagi "Suvaydo" She'ri Tahlili. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 2(11), 314-318.
30. Назарова, Д. И. (2023). "Улуғ Салтанат" Асарнинг Ғоявий-Бадийий Мундарижаси Ва Композицион Хусусиятлари. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 2(5), 50-55.
31. Dildora, N. (2023). THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 71-72.
32. Dildora, N. (2023). Improving the Educational Process Based on the Design and Development of Pedagogical Technology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 167-168